


JOURNAL OF

NATURAL SCIENCE

<https://natscience.jdpu.uz>

2025 /№1 (18)

The cover features a photograph of a dense forest of tall, green evergreen trees. The scene is shrouded in a thick, white mist or fog, which softens the background and creates a serene, atmospheric effect. Overlaid on the image are several thin, black diagonal lines that crisscross the frame, adding a modern, geometric design element. In the bottom-left corner, there is a white rectangular box containing the journal's subject areas.

Chemistry
Biology
Geography

<u>TAHRIR HAY’ATI</u>	<u>TAHRIRIYAT A’ZOLARI</u>
Bosh muharrir Yaxshiyeva Z.Z. k.f.d., professor	<u>Bosh muharrir</u> Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna k.f.d., professor <u>Tahririyat a’zolari:</u> 1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU. 2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti. 3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya. 5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI. 7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU. 8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU. 9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O’zMU. 10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU. 11. Usmanova X.U. – professor URUXU. 12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O’zMU. 13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O’zMU. 14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU. 15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU 16. Murodov K.M. – dotsent SamDU. 17. Abduraxmonov G’.– dotsent O’zMU. 18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O’zMU. 19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU. 20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU. 21. G’o’dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU. 22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU. 23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O’zMU. 24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF 24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU. 25. Rashidova K. – dotsent JDPU. 26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.
Muassasa Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jurnal 4 marta chiqariladi (har chorakda)	
Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar aniqligi va to’g’riligi uchun mualliflar mas’ul.	
Jurnaldan ko’chirib bosilganda manbaa aniq ko’rsatilishi shart.	

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

**ROZMARIN O'SIMLIGINI AN'ANAVIY USULDA KO'PAYTIRISH
TEKNOLOGIYASI**

S.Hayitova – 1-kurs magistr

N.Xamrayeva – dotsent

X.Sh.Usmonova-talaba

**Jizzax davlat pedagogika universiteti
Alfraganus universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Rozmarinus officinalis*(Rozmarin) o'simligining an'anaviy ya'ni urug' orqali, novdalar orqali va bo'laklash usullari orqali ko'paytirish hamda parvarishlar haqida atroflicha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Bibariya, substrat, garmon, profilaktika, urug', bo'laklash, ph daraja.

Annotation: This article provides detailed information about the propagation and care of the *Rozmarinus officinalis* (Rosemary) plant by traditional methods, i.e. by seeds, cuttings and cuttings.

Key words: Rosemary, substrate, hormone, prevention, seed, division, ph level.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о размножении и содержании растения *Rozmarinus officinalis* (Розмарин) традиционными методами, т.е. семенами, черенками и черенками.

Ключевые слова: Розмарин, субстрат, гормон, профилактика, семена, деление, уровень ph.

Rozmarin (*Rosmarinus officinalis*) ko'p yillik, issiqlik va yorug'likni yaxshi ko'ruvchi dorivor o'simlik hisoblanadi. Uni an'anaviy usullarda ko'paytirish qishloq xo'jaligi va sanoat ehtiyojlarini qondirish uchun keng qo'llaniladi. Rozmarin o'simligining o'zbekcha nomi bibariyadir

Urug'dan ko'paytirish texnologiyasi genetik xilma-xillikni ta'minlaydi, yangi navlar yetishtirish uchun mos. Rozmarin o'rimligini urug'dan

ko'paytirish bir necha bosqichlarda amalga oshadi. Dastlab urug' tanlanadi .Urug' tanlash jarayonida yuqori sifatli, sog'lom urug'lar tanlanishi shart.Sifatli urug'lar saralanib olingandan so'ng iliq suvda 12-24 soat davomida ho'llash orqali ularning unuvchanligi oshiriladi. So'ngra ekish uchun muqobil joy tanlanadi va tuproq ekish uchun tayyorlanadi. Bu jarayonda drenajlangan va organic o'g'it bilan boyitilgan tuproq ishlatish maqsadga muvofiqdir.Urug'lar uchun maxsus substrat sifatida qum va gumus aralashmasi ishlatilinsa yanayam samaradorlik oshishga erishish mumkin.

Tuproq tayyorlangandan so'ng ekish jarayoni amalga oshiriladi. Urug'lar 0,5-1 sm chuqurlikda ekiladi.urug'lar ekilgandan so'ng ham tuproq doimiy nam holatda saqlanishi kerak. Nihollar odatda 14-21 kunda unib chiqadi.

Urug' orqali ko'paytirish ko'p vaqt oladi va o'simlik barcha genetik xossalarini saqlab qolmasligi mumkin . Shu sababli hozirgi kunga kelib deyarli bu usulda ko'paytirilmaydi.

Novdalari orqali ko'paytirish keng tarqalgan usllardan biri hisoblanadi. Bu usul yordamida ko'paytirilgan o'simlik onalik xususiyatlarini to'liq saqlab qoladi. Novda orqali ko'paytirishda 2-3 yoshli sog'lom o'simliklarning 10–15 sm uzunlikdagi yosh shoxlari kesib olinadi,pastki barglar olib tashlanadi, yuqori qismi esa qoldiriladi. Shoxlarni ildiz chiqaruvchi gormonlarga (masalan, Indole Butyric Acid - IBA) botirish ildiz otishni tezlashtiradi.Shoxchalar nam tuproqqa 3–5 sm chuqurlikda ekiladi. Ekishdan keyin o'simliklar plyonka yoki shisha ostida saqlanadi. Bu namlikni saqlash va mikroiklim yaratish uchun muhimdir. Har kuni tuproq namligi va havo aylanishi ta'minlanadi. Odatda bu usul bilan ko'paytirilganda 3–4 hafta davomida ildiz chiqaradi

Bo'laklash usuli bilan ko'paytirish o'simliklarni ko'paytirishning eng oddiy usullaridan biridir. Bu usul tuproq va iqlim sharoitiga moslashtirilgan navlarni saqlash imkonini beradi. Bo'laklash usuli quyidagicha amalga oshiriladi: Yetilgan, sog'lom rozmarin butasi tanlanadi va tuproqdan ehtiyotkorlik bilan qazib olinadi.

Ildizlari yuviladi va bir nechta qismga bo'linadi. Har bir bo'lakda kamida bitta sog'lom kurtak va ildiz bo'lishi kerak. Bo'laklar oldindan tayyorlangan

unumdor tuproqqa ekiladi. Ko‘chatlarni ekishdan so‘ng sug‘orish va ildiz otguncha soyada saqlash talab qilinadi.

Rozmarinning muvaffaqiyatli yetishtirilishi uchun quyidagi shartlarga e‘tibor qaratish lozim: Tuproq-drenajlangan, o‘rtacha qumli va boy mineral tarkibga ega tuproq tavsiya etiladi, ideal pH darajasi: 6,0–7,5, rozmarin iliq va quyoshli sharoitlarni yaxshi ko‘radi, sovuqqa chidamliligi past, shuning uchun sovuq hududlarda issiqxonalarda yetishtiriladi. Namlik me‘yorida bo‘lishi kerak. Tuproqni ortiqcha sug‘orish ildizlarning chirishiga olib kelishi mumkin.

Rozmarin kasalliklarga nisbatan chidamli bo‘lsa-da, ba‘zi zararkunanda va kasalliklar unga zarar yetkazishi mumkin: O‘rgimchak kana, shira, va trips va tuproqning ortiqcha namligi tufayli ildiz chirishi.

Profilaktika choralari: Tuproqni me‘yorida namlash, zararkunandalarni nazorat qilish uchun biologik yoki kimyoviy vositalardan foydalanish zarur.

Rozmarinni an‘anaviy usulda ko‘paytirish ekologik toza, arzon va samarali usullardan biridir. Urug‘dan yetishtirish, novdalar orqali ko‘paytirish va bo‘laklash kabi usullarni o‘z vaqtida va texnologiyalarga muvofiq amalga oshirish orqali yuqori sifatli va sog‘lom ko‘chatlar yetishtirish mumkin.

Shu bilan birga, tuproqni parvarish qilish, zararkunandalardan himoyalash va iqlim sharoitlariga moslashish rozmarinning yaxshi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Manbalar:

1. "Rosemary: The Genus Rosmarinus" - Eduardo Barreto, CRC Press, 2006.
2. "Plant Propagation Principles and Practices" - Hartmann H.T., Kester D.E., Pearson Prentice Hall, 2010.
3. "Essential Oil Crops" - E. A. Weiss, CAB International, 1997.
4. Google Scholar, PubMed va ResearchGate